

**SIRKULYATSION NASOSLARNING ASOSIY QISMLARI VA TEXNOLOGIK  
HUSUSIYATLARI**

**Shukuraliyev Abrorbek Sukurali o‘g‘li**

Andijon mashinasozlik instituti “Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar”  
kafedrasi mudiri

**Mannobboyev Shuxratbek Soyibjon o‘g‘li**

Andijon mashinasozlik instituti “Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar”  
kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Xoshimov Xojiakbar Abdukarim o‘g‘li – talaba**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada har qanday ishchi mexanizm yoki qurilma, ma’lum texnologik operatsiyani bajarish uchun mo‘ljallanganligi. Masalan: kran - yuk ko‘tarish yoki siljitim uchun, tokarlik dastgohi – detallarga kesib ishlov berish uchun, press – detallarni bosim bilan tayyorlash uchun, kompressor – sifilgan havoni uzatish uchun, nasos – suv va boshqa suyuqliklarni uzatish, uzlusiz transport mexanizmlari – yuklarni, passajirlarni tashish uchun va h.k [1].

**Kalit so‘zlar:** aylanma (sirkulyatsiya) nasos, mashinasozlik korxonalari, suvni sirkulyatsiya qilish, mexanik xarakteristika, nasos elektr yuritmasi, suvni kinetik energiyasi.


Aylanma (sirkulyatsiya) nasos yopiq isitish yoki suv ta’minoti tizimlarida yopiqmagistrallarda suvni aylanma harakatini ta’minlash uchun xizmat qiladi. “Aylanma nasos” atamasi nasosni tuzulishini belgilamaydi, balki uning qo‘llanish sxemasini aniqlaydi. Suvni sirkulyatsiya qilish uchun nasoslarni barcha tiplari ishlatalishi mumkin, faqat u foydalanishni uzlusizligini ta’minlab berishi kerak.

Nasoslar mashinasozlik korxonalarida juda keng qo‘llaniladi. Ular suyuq moddalarni – texnologik va sovitish suvlar, turli hil moylar hamda yog‘larni uzatish uchun ishlataladi. Ishlash printsipiغا ko‘ra nasoslar poshenli va parrakli (markazdan kochuvchi) turlariga bo‘linadi.



1-rasm: Aylanma (sirkulyatsion) nasosning umumiyo ko‘rinishi

Aylanma (sirkulyatsiya) nasosni ishlash printsipini g'ildirakli (parrakli) nasos asosida ko'rib chiqamiz, uning ishlashi markazda qochma kuchdan foydalanishga asoslangan. Radial egilgan parakli nasos g'ldiragi elektrosvigatel vali bilan biriktirilgan bo'ladi. Tortish trubkasidan so'rulgansuv gildiak markaziga tishadi va markazdan qo'chma kuch hisobiga aylana bo'yab sochiladi. Nasosning chiqish qismini spiral kanali difuzorda suvni kinetik energiyasi potensial energiyaga aylanadi va suni bo'simi oshadi.



2-rasm: G'ldirakli (parrakli) nasos sxemasi

Aylanma (sirkulyatsiya) nasosni ishchi parametrleri g'ldirakni diametriga va aylanish tezligiga bog'liq bo'adi:


- Nasosni ish unumidorligi g'ldirakni aylanish tezligiga proporsional o'zgaradi;
- Nasosni bosimi g'ldirakni aylanish tezligining kvadratiga proporsional o'zgaradi;
- Nasosni iste'mol quvvati g'ldirakni aylanish tezligining kubiga proporsional o'zgaradi;
- Nasosni ish unumidorligi va bosimi g'ldirak diametrining kvadratiga proporsional o'zgaradi.

Aylanma (sirkulyatsiya) nasoslarni texnik tavsiflariga quyidagilar kiradi:

- Bosim ***H*** (***m***) – bu nasosni krish va chiqish trubkalari bo'simlarini farqi. Nasosni bosimiga tizimni balandligi ta'sir etmaydi, u sirkulyatsion halqadagi gidravlik bosim isroflarini yopish zarur.
- Ish unumidorligi ***Q*** (***m<sup>3</sup>/soat***) – vaqt birligida nasos uzatayotgan suv hajmi. Nasosni haqiqiy ish unumidorligi uning gidravlik va bosim-sarfiy xarakteristikasi yordamida aniqlanadi.
- Bosim-sarfi xarakteristika – bu nasos ish unumidorligini uning bosimiga bog'lanish tavsifi ***Q = f(H)*, [*m<sup>3</sup>/soat*]/*m***.
- Bosim-sarfi xarakteristika har nasos markasi uchun aloxida tuziladi va texnik kataloglarda keltiriladi.
- Gidravlik xarakteristika – bosim isroflarini to'liq bosimga bog'lanish tavsifi. Masalan sirkulatsiya halqasida suv sarfini 2 barobar oshirish uchun bosimni 4 karra oshirish kerak.
- Nasosni kavittatsion zaxirasi (NKZ) – so'rish trubkadagi absolyut minimal bosim, ya'ni kovitatsiyasiz ishga tushrish mumkin bo'lgan bosim, ***m***. NKZ har bir nasos markasi uchun kataloglarda grafik ko'rinishida keltiriladi. Aylantirilayotgan suvni harorati qancha yuqori bo'lsa NKZ qiymati shuncha baland bo'ladi.

- Foydali quvvat  $P_2$  ( $Vt$ ) – vaqt birligida uzatilayotgan suyuqlik energiyasiga mos keladi,  $P_2 = g \cdot Q \cdot H (Vt)$ .
- Iste'mol quvvati  $P_1$  ( $Vt$ ) – nasos valiga berilayotgan mexanik quvvat. Mexanik quvvat, ishchi g'ildirakdag'i ishqalanishdagi isroflar va gidravlik isroflar miqdorida, foydali quvvatdan katta bo'ladi:  $P_1 = P_2$ .
- Foydali ish koefitsienti (FIK), % - FIK nasosni mukammallik darajasini ifodalaydi va foydali quvvatni iste'mol quvvatiga nisbati bilan aniqlanadi.

Aylanma (sirkulyatsiya) nasos tanlashda nasosdan uzoqroqda joylashgan magistral trubalarda bosimni tushib ketish mumkinligini hisobga olish zarur. Shining uchun nasosni bosim bo'yicha 10-20% va suv sarfi bo'yicha 20-30% zaxira bilan tanlash kerak. Shu bilan birga suv sarfini 1,3 martda ko'payishi bilan bo'sim isroflari 1,7 martda ortib ketishini hisobga olish shart [5].



3-rasm: Parrakli nasosni energetik ko'rsatgichlari

Aylanma (sirkulyatsiya) nasos sanoat korxonalarida keng qo'llaniladi. Aylanma (sirkulyatsiya) nasoslar GM-O'ZBEKISTON avtomobil zavodi payvandlash tsevidagi payvandlash robotlarini ishchi organlarini (payvandlash dastaklari) sovutish uchun qo'llaniladi, haroratni o'zgarishiga qarab ular orqali o'tuvchi suv sirkulyatsiyasini avtomatik ta'minlab turadi [2].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ключев В.И. “Теория электропривода” М. 2000.440 с
2. Москаленко В.В. “Электрический привод” Учебное пособие.Академия 2004 г.
3. Москаленко В.В. “ Системы автоматизированного электропривода” Инфра М. 2004 г.
4. Zakrullayevna Z. I. et al. ELECTRIC DOWNLOAD DIAGRAMS AND SELECTION OF ELECTRIC ENGINE POWER //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 33-37.
5. Mamadzhanov B. D., ugli Mannobboev S. S. CONTROL OF THE ELECTRIC FIELD OF DIELECTRIC SEPARATING DEVICES BY THE SUPERIMPOSITION METHOD //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 07. – С. 37-41.
6. Мамаджанов Б. Д., Шукуралиев А. Ш., Манноббоев Ш. С. МЕТОДИКА РАСЧЕТА ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЕМКОСТИ РАБОЧЕГО ОРГАНА ДИЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СОРТИРОВОЧНОЙ МАШИНЫ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 581-589.
7. Мамаджанов Б. Д., Манноббоев Ш. МЕРЫ ПО МИНИМИЗАЦИИ ПОТЕРЬ МОЩНОСТИ И ЭНЕРГИИ В ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 162-168.
8. Mamadzhanov B. et al. Dielectric separation //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 02017.
9. Faye F. R. et al. The impacts of improper curbside parking on traffic flow in semi-urban area, Ethiopia //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 02001.
10. Rage F. et al. Modelling and analysis of vehicle accident under mixed traffic conditions in Ilu Ababor zone, Ethiopia //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 377. – С. 02002.
11. Mamadzhanov B. et al. Dielectric separation //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 02017.